

O'zbekiston Prezidenti Budapeshtga keldi



Vengriya Bosh vaziri Viktor Orbanning taklifiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rafiqasi bilan birga amaliy tashrif bilan Budapesht shahriga keldi.

Ferens List nomidagi xalqaro aeroportda oliy martabali mehmonlarni Vengriya Bosh vaziri Administratsiyasi rahbari - vazir Gersey Gyyash va boshqa rasmiy shaxslar kutib oldi.

Tashrif dasturiga muvofiq, bugun oliy darajadagi O'zbekiston-Vengriya muzokaralari bo'lib o'tadi.



Manba